

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 11 Jild 4

**2024**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 11 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич</i> “ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА .....	12-17
<i>Эгамбергенов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли</i> ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА) .....	18-25
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> ҚО’ҚОН ХОНЛАРИ СУЛОЛАСИНИНГ ГЕНЕОЛОГИК ТАҲЛИЛИ .....	26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i> О’ЗБЕКИСТОНДА XX-АСРНИНГ 20-40-ЙИЛЛАРИДА СANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI .....	32-38
<i>Asadova Ra’no Baymanovna</i> О’ЗБЕК- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO’TARILISHI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI .....	39-42
<i>Saidova Raxima</i> О’ЗБЕКИСТОН ВА ИТАЛИЯ MUNOSABATLARINING ME’YORIY-HUQUQIY MANBALARI ....	43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra’no Muzaffarbek qizi</i> AFROSIYOB ARXEOLIGIK YODGORLIGINING O’RGANILISH TARIXI .....	49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i> TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR .....	56-60
<i>Mirsoatova Sayyora Turg’unovna</i> QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI .....	61-66
<i>Лухмонов Шахзод Сайфиддин ўғли</i> ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР .....	67-71
<i>Axmedov Bekzod</i> SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O’ZBEKISTONDA QORAKO’LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI.....	72-75
<i>Mamatov Jasurbek Qodirqul o’g’li</i> NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIIY HAYOTIDAGI O’RNI (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA) .....	76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek Toshpo’latovich</i> SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO’NALISHLARI .....	81-88

*Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич*

ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИИЙ  
РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ..... 89-93

*Akrorov Botir Bakhodirovich*

ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА  
В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ..... 94-99

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Tursunov Bekmuxammad Omonovich*

IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI  
RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMI TAKOMILLASHTIRISH ..... 100-108

*Muxitdinova Kamola Alisherovna*

«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN  
MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI ..... 109-115

*Madraximov Qaxramon Egamberganovich*

INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA  
ERISHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA..... 116-125

*Кетманов Авазбек Маликович*

КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ  
ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 126-134

*Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich*

KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI..... 135-142

*Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon ogli*

MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING  
OF GOODS AND SERVICES ..... 143-152

*Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi*

MINTAQA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI  
TASNIFI ..... 153-160

*Sharipov Komil*

MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI ..... 161-170

*Rajabov Navruzbek Azimjonovich*

MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI  
QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ..... 171-179

*Mirzaeva Shirin Nodirovna*

SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN  
UZBEKISTAN..... 180-187

*Pardayev Rasulbek Islomovich*

TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING  
TAHLILI ..... 188-196

*Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li*

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH  
XUSUSIYATLARI ..... 197-202

*Рахимов Бахромжон Ибрахимович*

ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО  
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ..... 203-209

*Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHİYATI (NAMANGAN  
VILOYATI TAHLILIDA)..... 210-216

*Hasanov Ilkhom Isakovich*

IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE  
AGRICULTURE OF UZBEKISTAN..... 217-221

*Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna*

CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING  
XUSUSIYATLARI ..... 222-227

*Maxmudov Jasurbek Ergashevich*

INNOVATION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY  
JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI ..... 228-233

*Ravshanov Nodirjon Begalievich*

TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI  
OSHIRISHNING AHAMIYATI ..... 234-243

## **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*

SHIHOIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOYIY-SIYOSIY  
VAZIYATLARNING TA'SIRI ..... 244-248

*Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich*

XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI  
VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI..... 249-254

*Saburov Jaloliddin*

XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY  
HAYOT RIVOJI ..... 255-260

*Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich*

NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON " TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA  
MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 261-265

*Saidkulov Nuriddin Akramkulovich*

FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY ..... 266-271

*Adilov Zafar Yunusovich*

MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH  
MEVALAR MASALASI ..... 272-277

*Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich*

ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND  
PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE  
YOUNG GENERATION ..... 278-282

*Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich*

TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING  
IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ..... 283-287



**11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELLIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ ..... 288-295

*Daliyeva Madina*

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES ..... 296-300

*Paluanova Khalifa*

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES ..... 301-306

*Равшанов Махмуд*

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО ..... 307-311

*Bekbergenova Gulaim Aijarıkovna*

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS ..... 312-318

*Normamatov Farrux Komiljon o'g'li*

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI ..... 319-322

*Gulamova Dilobar Imamkulovna*

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI ..... 323-326

*Xolmuxamedov Baxtiyor*

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI ..... 327-334

*Chorieva Iroda Kurbonboevna*

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ..... 335-339

*Ganiyeva Orzigul Xayriddinovna*

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUKSIYA: SHAKL VA MAZMUN MASALASI ..... 340-345

*Расулова Камола*

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ..... 346-353

*Омонов Турғунбой*

“СУҒУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ ..... 354-358

*Хакбердиева Сайёра Фармоновна*

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ..... 359-364

*Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich*

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 365-370

*Gubaydullin Artur Faridovich*

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S "GOOD OMENS" ..... 371-376

*Abdullaeva Sevara Makhsudaliyevna*

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES ..... 377-381

*Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi*

SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK

TAHLILI ..... 382-385

*Yuldasheva Nigora Baxodirovna*

INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI ..... 386-390

*Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi*

ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHLILI ..... 391-396

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Рузметов Хайрулла*

ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ  
КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ ..... 397-402

*Ачилова Лилия Илхомовна*

ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ  
МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ  
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ..... 403-410

*Abdubannayev Umidjon*

AXBOROTGA BO'LGAN INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING  
RIVOJLANISH BOSQICHLARI ..... 411-421

*Халиқулов Комолиддин Носирович*

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА  
ДАВЛАТ СУВЕРЕНИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ ..... 422-427

*Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли*

ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА  
ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ..... 428-433

*Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли*

ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ  
МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ..... 434-439

*Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich*

IJTIMOIIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA  
QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA ..... 440-446

*Алиев Асилбек Кадирович*

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ  
АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ ..... 447-451

*Нодирахон Абдурахманова*

РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ  
АСПЕКТЫ ..... 452-462

*Ғайбуллаев Сохибжон Ғайбуллаевич*

РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ ..... 463-469

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Xusanova Mohira*

OLIY O'QUV YURTLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI  
TAKOMILLASHTIRISH ..... 470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i> ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛҒОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ .....	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TALABALARNING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI .....	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH .....	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i> TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI .....	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i> MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI .....	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV .....	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i> TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI .....	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i> SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI .....	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i> MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI .....	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI .....	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI .....	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY .....	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i> THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS .....	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i> TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i> ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI .....	565-568

**Received:** 31 October 2024  
**Accepted:** 5 November 2024  
**Published:** 15 November 2024

*Article / Original Paper*

## **GENEALOGICAL ANALYSIS OF THE DYNASTY KOKAND KHANS**

**Esonov Ziyodbek Yuldashevich**

Kokand State Pedagogical Institute, Senior Lecturer of the Department of History, PhD

**Abstract.** This article covers the issues of the genealogical analysis of the dynasty of the Ko'kand Khans. The main focus is on showing the chronological period of the rulers of this dynasty in the family tree, their place in the dynasty, and the historical processes during their rule. The role of dynastic geneology in the broader study of the history of the khanate was discussed.

**Key words:** Kokand khanate, dynasty genealogy, geneology, period of administration, historical processes, clarification.

## **QO'QON XONLARI SULOLASINING GENELOGIK TAHLILI**

**Esonov Ziyodbek Yuldashevich**

Qo'qon davlat pedagogika instituti, Tarix kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Qo'qon xonlari sulolasining geneologik tahlili masalalari yoritilgan. Asosiy e'tibor mazkur suloladagi hukmdorlarni shajaradagi xronologik davri, suloladagi o'rni, uni boshqaruvi davridagi tarixiy jarayonlarni ko'rsatib berishga qaratilgan. Sulola geneologiyasi tadqiqi xonlik tarixini yanada kengroq o'rganilishidagi o'rni to'g'risida fikr mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Qo'qon xonligi, sulola shajarasi, geneologiya, boshqaruv davri, tarixiy jarayonlar, aniqlik kiritish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N03>

**Kirish.** Ma'lumki, o'zbek davlatchiligi tarixi, xususan Qo'qon xonligi tarixini ilmiy jihatdan izchil tadqiq etish vatanimiz tarixining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu mavzuda mamlakatimizda va horijda olib borilayotgan tadqiqot ishlari bunga misol bo'ladi. Ta'kidlash kerakki, bu masalani o'rganishda sulola hukmdorlari xronologiyasi, ularning shajara zanjirida tutgan mavqeyi, ming sulolasining geneologiyasi tarixi masalasini tadqiq etish ham o'ziga xos o'ringa ega. Chunki shunda Qo'qon xonligi tarixidagi ayrim bahsli masalalar o'z yechimini topishi mumkin. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ming sulolasi hukmdorlarining davlat boshqaruvi taxtida bo'lgan yillari, ularning geneologik kelib chiqishi haqida tarixchilar orasida hali bir to'xtamga kelinmagan, bir-birini inkor qiluvchi ma'lumotlar beriladi [2;19-b]. SHu sababdan biz bu mavzu tahlili ustida to'htalib o'tdik.

**Adabiyotlar tahlili.** Aytish kerakki, o'rganilayotgan masalaga doir xilma-xil tarixiy manba, davriy nashriyot va ilmiy adabiyotlar jamlanmasi mavjud. Bular orasida ayniqsa, aynan ming sulolasi a'zolari tomonidan yozib qoldirilgan manbalar muhim deb hisoblaymiz. CHunonchi, Qo'qon xoni Xudoyorxonning ikkinchi o'g'li Muhammad Aminbek tomonidan



yozilgan va “Turkiston viloyatining gazetasi”si nashrida 1894 yil 22 martda chop etilgan “Farg’ona muzofatining xonlari xususidagi voqeotlar” maqolasida quyidagi shajara berilgan:

1. Amir Temur. 2.Uning o’g’li Mironshoh. 3.Mironshoh o’g’li Sulton Mahmud. 4.Sulton Mahmud o’g’li Sulton Abusaidxon. 5.Sulton Abusaidxon o’g’li Mirzo Umarshayx. 6.Mirzo Umarshayx o’g’li Sulton Bobur, uning xotini Saidofoxonim. 7.Sulton Bobur o’g’li Oltinbeshikxon. 8.Oltinbeshikxon o’g’li Sulton Elikxon. 9.Sulton Elikxon o’g’li Sulton Xudoyorxon. 10.Sulton Xudoyorxon o’g’li Muhammad Aminxon. 11.Muhammad Aminxon o’g’li Abulqosim Mirzo. 12.Abulqosim o’g’li Aslzoda. 13.Aslzoda o’g’li SHaxmastbiy. 14. SHaxmastbiy o’g’li Shohruhxon birinchi.(E.Z.) 15.Shohruhxon birinchi (E.Z.) o’g’li Rustambiy. 16. Rustambiy o’g’li Hojibiy. 17.Hojibiy o’g’li Ashurbiy. 18.Ashurbiy o’g’li SHohruhbiy soniy. 19. SHohruhbiy soniy o’g’li Abdukarimxon. 20. Abdukarimxon o’g’li Abduraxmon. 21.Abduraxmon o’g’li Hojibek. 22. Hojibek o’g’li SHeralixon. 23.SHeralixon o’g’li Xudoyorxon [12; 6-b].



Худойрхон авлодлари:  
Утирганлар: чапдан биринчи — Муҳаммад Аминбек (хоннинг иккинчи угли), иккинчи — Назирбек (хон акаси Суфибекнинг угли), учинчи — Бурхониддинбек (Насриддинхоннинг угли), тўртинчи — Темурбек (Муҳаммад Аминбекнинг угли), тўртинчи: чапдан биринчи — Нуриддинбек (Муҳаммад Аминбекнинг угли), иккинчи — Эшоналибек (Саид Умарбекнинг угли), учинчи — Ибн Яминбек хоннинг кенжа угли), тўртинчи — Саид Умарбек (хоннинг учинчи угли), бешинчи — Фансуруллобек (хоннинг бешинчи угли).

Mazkur shajara tuzilishidagi ma’lumotlar albatta tanqidiy yondashuvni talab etadi. U xonlik siyosiy tarixidagi hukmdorlar davri to’g’risida xronologik jihatda to’la tasavvur bermaydi.

**Muhokama.** Tarixiy manbalarga ko’ra Qo’qon xonlari shajarasi quyidagicha davom etgan. Dastlab xokimiyatga 1709 yil Ashurqulbiy o’g’li SHohruhbiy keladi. Bu to’g’rida Mirzo Olim Mushrifning “Ansob us salotin va tavorix ul havoqin” asarida “Haloyiqni ittifoqi bilan Ashurquli otaliq otasini masnadig’a o’ltirdi. Bir necha yillar hukmronlik qilib olamdin o’tdi. Andin SHohruhbiy yodgor qoldi. Taxti saltanatda o’ltirib o’n uch yil podshohliq qilib, qirq yoshda olamdin o’tdi”,- deb qayd etiladi [8; 7-b]. Ashurqulbiy ming urug’ining yetakchi oqsoqoli bo’lgan va bu lavozim o’g’li SHohruhbiyga ham meros o’tgan. Xokimiyat tepasiga kelgunga qadar, SHohruhbiy ham urug’ oqsoqoli lavozimida bo’lgan. U taxminan 1681 yilda tug’ilgan bo’lib 28 yoshida xokimiyat tepasiga kelgan edi. Shohruhbiy 1721 yil vafot etgan.

Qo'qon mulki taxtiga 1721 yilda SHohruhbiyni katta o'g'li Abduraimbiy keladi va davlatni 1733 yilgacha boshqaradi. Uni ismi ba'zi manbalarda jumladan, Muhammad Hakimxon to'raning "Muntahab ut-tavorix" asarida Rahimxon tarzida ham beriladi. Ta'kidlanishicha, u otasi davrida Namanganda xokim lavozimida turgan. Otalig'I Muhammad Bahodir edi. Uni 1732 yil Shahrisabzlik Ibrohim kenegas qiziga uylanishi mavqeyini benihoya oshirgan. Tarixchi T.K. Beysimbiyev ma'lumotiga ko'ra ushbu ming-kenegas urug'lari ittifoqi XIX asrning 60-yillarigacha qariyib 130 yil davom etgan.

Qo'qonda xokimiyatga 1733 yilda SHohruhbiyni ikkinchi o'g'li Abdukarimbiy keladi. Bungacha u ham akasi kabi Namanganda xokim vazifasida turgan. Poytaxt Qo'qonda ko'plab bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Tarixchilar XVIII asr birinchi yarmi Qo'qondagi urbanistik o'zgarishlar uni nomi bilan bog'likligini qayd etadilar. 1750 yil Abdukarimbiy vafot etadi.

1750 yil rasmiy xokimiyatga Abdukarimbiyni o'g'li Abduraxmonbek chiqadi. Lekin afsuski, uning xukmronlik davri 9 oy davom etadi xolos. Uning qisqa hukmronlik qilishini tarixchilar ko'p omillar bilan birga sulola ichidagi taxtga davogar Abduraimbiy va Abdukarimbiy avlodlari o'rtasidagi nizolar bilan bog'liq deb hisoblaydilar. Abdurahmonbek 1751 yil Marg'ilonga xokim etib tayinlanadi va shu tarzda xukmdorlikdan chetlatiladi.

1751 yil xukumatga Abduraimbiy o'g'li Erdanabiy keladi. Tarixchilarni uni ikki marta xokimiyatga kelganligini va shundan 1-davri 1751-1752 yillarni o'z ichiga olishini bildiradilar. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, tarixchi Muhammad Solihxo'ja Toshkandiy Erdanabiyni SHohruhbiyni uchinchi o'g'li SHodibiyning farzandi deb ko'rsatadi. Ya'ni u: "Zikri saltanatroni Erdanaxon ibni Shodixon" deb ma'lumot beradi. [10; 224-b]. Erdanabiyning birinchi hukmronlik davri 1752 yil tugaydi. Uni bunday qisqa davr boshqaruvda bo'lishini bosqinchi qalmoqlar tazyiqi ostida, ichki nizolar bilan bog'liq degan qarash ham mavjud.

Zero, 1752 yil xokimiyatga Abdukarimbiy o'g'li Bobobek keladi. Darvoqe, u 1745 yil qalmlarning Qo'qonga yurishi paytida "oq uylik" shahzoda sifatida garovga olib ketilgan edi. Qalmlar Abdukarimbiyning vafotidan habar topganlaridan so'ng 1752 yil Bobobekni Qo'qon taxtiga chiqarishga harakat qiladilar va bunga erishadilar ham. Lekin Bobobek xukumatda mustahkam tayanchga ega bo'lolmaydi. U bor-yog'I 10 oy davomida davlat tepasida bo'lib, 1753 yilgi O'ratepa yurishi davrida Beshariqda mahalliy amaldorlar tomonidan suyuqasd natijasida o'ldiriladi. Bunda Abduraimbiy o'g'li Erdanabiy katta rol o'ynaydi. Ta'kidlash kerakki, Bobobek shaxsi masalasida ayrim taixchilar uni Abdukarimbiy o'g'li, boshqalari Abduraimbiy farzandi deb ko'rsatadilar. Ma'lumotlar tahlili birinchi mulohaza to'g'ri deyishga asos beradi.

Shu tarzda 1753 yil yana taxtga Erdanabiy chiqadi va 2-davrida 1762 yilgacha xukumatda qoladi. Uni bu boshqaruvi davrida Xitoy bilan munosabatlar keskinlashadi. Chunki Sharqiy Turkistondagi musulmon xukmdorlarning XVII asrdan boshlab Xitoy davlatining bosimiga qarshi kurashi kuchaygan edi. Bunda ular XVIII asr boshidan boshlab Qo'qon davlatiga tayana boshlaydilar. Natijada Sharqiy Turkiston masalasida Erdanabiy davrida Xitoy-Qo'qon munosabatlari keskinlashadi. Erdanabiy bu muammoni sulh orqali vaqtincha bartaraf etadi.

1762-1763 yillar oralig'ida 3 oy mobaynida taxtni SHohruhbiyni uchinchi o'g'li SHodibiyning farzandi Sulaymonbek egallaydi. Uni qisqa vaqt hukmronlik qilishiga tarixchilar uning davlat boshqaruviga qobilyati yo'qligi va bundan hukmron sinf vakillari noroziligi kelib chiqqanligi, unga suyuqasd uyushtirilganligini ta'kidlaydilar.

Davlatni 1763-1798 yillarda Norbo'tabiy boshqaradi. Uning nasabi to'g'risida quyidagi ma'lumotlar beriladi: "Erdanabiy o'z hududini kengaytirishni davom ettiradi. U Isfarani egallab olishga qaror qilib, Abdurahmon Botirni xoinona ravishda o'ldiradi, uning o'g'li Norbo'tabiy esa shu kechasi buvisinikida bo'lganligi uchun bu suyiqasddan qutilib qoladi va SHahrisabzga ketishga erishadi" [3; 23-b]. SHu o'rinda Abdurahmon Botir ismli shaxs Qo'qon xoni Abdukarimbiyning o'g'li Abduraxmonbek ekanligi, Erdanabiyning unga adovati bu sulola ichidagi taxtga davogar Abduraimbiy va Abdukarimbiy avlodlari o'rtasidagi nizolar bilan bog'liqligini qayd etish zarur. Abdurahmonbekning qatl etilishi bu nizoni yanada kuchaytirgan. Zero, tarixchi Muhammad Solihxo'ja Toshkandiy o'z asarida Norbo'tabiyning "Norbo'ta ibni Abdurahmonxon" deb ko'rsatadi. Demak Abdurahmonbekni Erdanabiy tomonidan qatl qilinishidan norozi bo'lgan guruhlar, 1763 yil xokimiyatga Abdurahmonbekni farzandi Norbo'tabiyning chiqishiga erishadilar. Demak uni adabiyotlarda Norbo'tabiy Abduraxmonbek o'g'li deb berilsa ushbu xukmdor shaxsi to'g'risida kengroq tasavvur yuzaga keladi. Norbo'tabiyning 1763 yil taxtga yirik amaldorlar Abdulla Qushbegi, G'urumsaroy hokimi O'tov Bakovul, Irisqulibiy, Abdurahmon Bahodirlar ko'tardilar. U hokimiyatga kelgach akasi SHohruhbiyning Namanganga, ukasi Hojibekni Xo'jandga hokim qilib tayinlaydi. Uni davrida davlatda pul islohati o'tkazilib muomalaga "Qora fulus" nomli mayda mis chaqa tanga zarb etilgani ma'lum [11; 1-b].

Norbo'tabiydan keyin xokimiyat dastlab ikkinchi o'g'li Olimxon keladi. U davlatni 1798-1810 yillarda boshqaradi. Uni davrida Qo'qon mulki mustaqil davlat sifatida Markaziy Osiyoda muhim mavqe egallaydi. Aytish kerakki, Norbo'tabiyning Olimxon va Umarxon ismli o'g'illari ming urug'i yirik amaldori Irisqulibiyning jiyani Mingoyim ismli xotinidan tug'ilgan farzandlari edi. Ularni xokimiyatga kelishida tog'asi Irisqulibiy va uning tarafdorlari asosiy rol o'ynadilar. Taxtga davogarlardan biri Abduraxmonbiyning ikkinchi o'g'li Hojibek ya'ni Norbo'tabiyning o'gay ukasi bo'lib, Olimxon davrida hokimiyatni egallay olmagan mamlakat sharqiy qismlariga ketgan edi. Olimxon davrida mamlakat hududlari janubiy Qozog'iston hududlarigacha kengaytirdi muhim savdo yo'llarini egalladi, tog'li xalq vakillaridan tuzilgan jangovor yollanma qo'shin tashkil etdi. 1810 yilda Qo'qonga uni shoshilinch qaytishga majbur qilgan sabab Turkiston va Avliyootaga yanvar oyida qilingan harbiy yurish qattiq sovuq davriga to'g'ri kelib, muxolif kuchlar norozilikdan foydalanib qo'shinni tarqatib yuborganligi edi.

1810-1822 yillarda davlatni Norbo'tabiyning uchinchi o'g'li Umarxon boshqaradi. Uni davrida mamlakatda tashqi savdo aloqalari, ma'muriy boshqaruv, adabiy hayot rivoj topdi. 1822-1841 yillarda davlat boshqaruvida Umarxon katta o'g'li Muhammad Alixon, 1841-1842 yillarda esa Umarxonni kichik o'g'li Sulton Mahmud bo'lgan.

1842 yil rasmiy xukumatga SHERalixon keladi. Uning nasabi to'g'risida quyidagi ma'lumotlar beriladi: "1842 yilning iyunida SHerali Qo'qon xoni deb e'lon qilinadi, u 3-4 ming qo'shini bilan Qo'qonga keladi" [4; 32-b]. Yoki ayrim adabiyotlarda u qisqacha "Olimxonni amakivachchasi" deb ko'rsatiladi. "Tarixi SHohruhi" asarida esa uning nasabi haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan: "Sartlar, qirg'izlar va qipchoqlar Farg'onaning butun aholisi bilan ittifoqlikda Olimxon davrida Talosga ketgan SHeralixon ibn Hojibek ibn Abduraxmon, ibn Abdukarimxonni Koson yaqinidagi Safedbulonda xon qilib ko'tardilar" [1; 101-b]. Demak ushbu ma'lumotda berilganidek SHeralixon Hojibekni o'g'lidir. Hojibek va Norbo'tabiy o'zaro o'gay aka-ukadir. Shu sabab ularning farzandlari SHeralixon va Olimxonni tarixchilar amakivachchalar deganda ushbu qarindoshlik bog'lamini nazarda tutadilar. Tarixchi M. Ya.

Dadaboevni bildirishicha, Abdurahmonbekning Hojibek va Norbo'tabiy ismli o'g'illari boshqa-boshqa onadan tug'ilgan farzandlari edi [6; 38-b]. SHu xonzodalar to'g'risida fikr yuritganda bu jihatni ham e'tiborga olish lozim. Darvoqe, Abdurahmonbek o'g'li Hojibekni 1803 yilda Qo'qon shahrining "Hojibek" guzarida "Hojibek" nomli madrasa qurdirgani ham ma'lum [5; 257-b]. 1844 yil SHERALIXON Murodixon tomonidan qatl etiladi.

So'ng Qo'qon taxtini 1844 yil 9 kun yoki ayrim manbalarda 7 kun Olimxoni o'g'li Murodixon egallaydi. [7; 295-b]. Lekin ko'p o'tmay qipchoq sardori Musulmonqul taxtga SHERALIXONni yosh o'g'li Xudoyorxonni chiqaradi. Ta'kidlash kerakki, Xudoyorxon Qo'qon taxtiga 3 marta kelgan bo'lib, uni 1-davri: 1845-1858 yillarni qamrab oladi.

1858-1862 yillarda davlat taxtini SHERALIXON yana bir o'g'li, Xudorxonni o'gay akasi Mallaxon boshqaradi. 1862 yil esa boshqaruvga SHOHMurod keldi. Ko'pgina tadqiqotlarda uni nasabi yaxshi yoritilmagan. Lekin tarixiy manbalarga tayansak u ming sulolasidan bo'lgan xukmdor SHERALIXONning boshqa o'g'li Sarimsoqxonni farzandi ekanligi ma'lum bo'ladi. Demak SHOHMurod Xudoyorxon, Mallaxon kabi xukmdorlarning jiyani hisoblanadi. Mallaxonni qatl etilishiga dahldor bo'lgan Toshkent hokimi Qanoat 1862 yil martda Xudoyorxonni Toshkentga chaqiradi. Bunga qarshi SHOHMurod 14 ming qo'shin bilan Toshkentga yurish uyushtiradi, lekin Xudoyorxon tarafdorlari SHOHMurodni o'g'irlab ketadilar va qatl etganlar. 1862-1863 yillarda Xudoyorxon 2-marta davlat xokimiyatini boshqaradi.

1863-1865 yillar taxtga Mallaxonni o'g'li Sulton Saidxon keladi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra u 1865 yil taxtdan ketgandan so'ng Buxoroga borgan. 1870 yil u siyosiy hayotga qaytish uchun Qo'qondagi muxolif kuchlar bilan yaqinlashishga uringanida Yakkatut qishlog'i yaqinida Xudoyorxon buyrig'i bilan o'ldirilgan. Boshqa bir ma'lumotga ko'ra 1867-1868 yillarda So'x qirg'izlari qo'zg'olon ko'targanda Buxoro amiri homiyligida bo'lgan Sulton Saidxon oldiga kishi yuborib uni xon ko'tarmoqchi bo'ladilar. Bundan Xudoyorxon habar topib uni Lolak (balki Laylak) mavzesida o'dirtiradi. [9; 215-b]. 1865-1875 yillarda rasmiy xokimiyatni 3-marta Xudoyorxon boshqaradi. Ko'p tarixiy jarayonlar uni davrida yuz beradi. Uni davri manbalarda kengroq yoritilgani uchun bu davrga alohida toxtalishni lozim topmadik. 1875 yil Xudoyorxon taxtdan ketgach oliy xokimiyatda uning o'g'li Nasriddinbek keladi. Ko'pgina tarixchilar uni Qo'qon xonligining so'nggi xukmdori deb hisoblaydilar. U davlatni 1876 yilgacha boshqargani ma'lum. Ta'kidlash kerakki, yuqorida bildirilgan masalalar, ayniqsa xronologik sanalar bo'yicha manbalarda turlicha ma'lumotlar mavjud. O'ylaymizki, kelgusi tadqiqotlarda bu masalalar ilmiy izlanishlar chuqurlashuvi bilan aniq shaklga keladi. Zero, haqiqat bahs-munozaralarda oydinlashib boradi.

**Natija.** Yuqorida bildirilgan mulohazalarga ko'ra, Qo'qon xonligi tarixida 22 ta xukmdor nomi qayd etilgan bo'lsa, nisbatan suloladagi o'rni kam aniqlashtirilgan bir qator xukmdorlar ya'ni, Abdurahmonbek, Bobobek, Norbo'tabiy, SHERALIXON, SHOHMurodixonning boshqaruv davri xronologiyasi, ularning davlat xokimiyatida, shu jumladan sulola ichidagi mavqeyi, mazkur xukmdorlarning ming sulolasiga qanday qarindoshlik zanjiri bog'lab turganligini to'g'ri ko'rsatib berishga harakat qilindi. Bu davrda yuz bergan ayrim tarixiy jarayonlarni yanada aniqroq tahlil etildi.

Eng asosiysi o'quvchiga Qo'qon xonligi davlatchilik tarixini teranroq tasavvur etish bo'yicha ma'lumotlar berildi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Qo'qon xonligi hukmdorlari geneologiyasi muammolariga doir yangi ma'lumotlarni ochilishi, yangicha yondashuvlarni yuzaga kelishi



vatanimiz tarixini kengroq o'rganilishiga yordam beradi. Zero, o'z tarixini chuqur bilgan, keng bilimga ega vatanimiz yoshlari "Uchinchi Renesans" bunyodkorlari sifatida farovon kelajakni quruvchilari bo'lib yetishadilar.

**Ming sulolasi geneologik tasnifi:**

1. Shohruhbiy Ashurqulibiy otaliq o'g'li.
2. Abdurahimbiy Shohruhbiy 1-o'g'li.
3. Abdukarimbiy Shohruhbiy 2-o'gli. (Abdurahimbiyning ukasi).
4. Abdurahmonbek Abdukarimbiy o'g'li. (Shohruhbiyning nabirasi).
5. Erdanabiy Abdurahimbiy o'g'li. (Shohruhbiyning nabirasi).
6. Bobobek Abdukarimbiy o'g'li. (Shohruhbiyning nabirasi, Abdurahmonbekning ukasi).
7. Sulaymonbek Shodibiyni (Shohruhbiyning 3-o'g'li) ni o'g'li. (Shohruhbiyning nabirasi).
8. Norbo'tabiy Abdurahmonbekni o'g'li. (Abdukariybini nabirasi).
9. Olimxon Norbo'tabiyni o'g'li. (Abdurahmonbekning nabirasi).
10. Umarxon Norbo'tabiyni o'g'li. (Abdurahmonbekning nabirasi).
11. Muhammad Alixon (Umarxonning o'g'li).
12. Sulton Mahmudxon (Umarxonning kichik o'g'li).
13. Sheralixon Hojibiyni o'g'li. (Abdurahmonbekning nabirasi).
14. Murodaxon Olimxonning o'g'li. (Norbo'tabiyni nabirasi).
15. Xudoyorxon Sheralixon o'g'li. (Hojibiyni nabirasi).
16. Mallaxon Sheralixon o'g'li. (Hojibiyni nabirasi).
17. Shoxmurodaxon Sarimsoqxon o'g'li. (Hojibiyni nabirasi).
18. Nasriddinbek Xudoyorxon o'g'li. (Sheralixonning nabirasi).

Bundan tashqari Xudayqul bolbog'chi, Po'latxon (Mulla Isxoq) kabi "soxta xonlar" ham xokimiyatda bo'lgan.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Beysembiyev T.K. "Tarixi SHaxruxi" kak istoricheskiy istochnik. – Alma-Ata, 1987.
2. Bobobekov X. Tarixchilar tadqiqotida Qo'qon xonlarining hukmdorlik davrlariga oid ayrim tafovutlar jadvali. // "Qo'qon asrlar silsilasida" Respublika ilmiy-nazariy konfrentsiyasi materiallari. – T.: 2004.
3. Bobobekov X. Qo'qon tarixi. – T.: Fan, 1996.
4. Bobobekov X. Qo'qon tarixi. – T.: Fan, 1996.
5. Dadaboev Ya., Abduqodirov R., Isaqova A. Ho'qandi Latif madrasalari. // "Qo'qon asrlar silsilasida". Respublika ilmiy-nazariy konfrentsiyasi materiallari. Qo'qon: 2004.
6. Dadaboev M. Ya. Ho'qandi latif mahallalari va ko'chalarining nomlanish tarixi. – F.: Farg'ona, 2007.
7. Ibrat. Farg'ona tarixi. – T.: Meros, 1991.
8. Mirzo Olim Mushrif. Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin. – T.: 1995.
9. Mirzo Olim Toshkandiy. "Ansob us salotin, tavorix ul-havoqin" 131a // Vohidov Sh. XIX-XX asr boshlarida Qo'qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. – T.: 1998.
10. Muhammad Solihxo'ja Toshkandiy. "Tarixi jadidi Toshkand" 54a-71b. // Vohidov Sh. XIX-XX asr boshlarida Qo'qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. – T.: 1998.
11. Muhammad Yahyoxon. Turkiston xonlari tarixi. // "Vatan" gazetasi. 1994 yil. № 31. Izoh: 1 tillo-24 tangaga, 1 tanga- 4 miriga, 1 miri- 2 pulga, 1 pul- 2 qora fulusga teng bo'lgan.
12. Yusupov SH. Xudoyorxon va Furqat. – T.: 1995.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 11 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).